UO‘K: 821.512.133-193

MANFAATLI NIKOH MOTIVINING SYUJETDAGI MAQOMI

(Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari misolida)

D.A. Azizova

Maqolada manfaatli nikoh motivining “Kecha va kunduz” romanidagi talqini va uning tadriji, mazkur motivning syujetdagi maqomi masalasi tadqiq etiladi. Romandagi manfaatli nikoh motivining biriktiruvchi maqomi asardagi boshqa motivlar bilan munosabatda namoyon bo‘lishi ochib beriladi. Bundan tashqari tipologik jihatdan o‘xshash motivlarning qahramon belgisi va harakati bilan turfa semalarni yuzaga chiqarishi, shunga ko‘ra syujetdagi motivlar kompleksining transformatsiyalanishi masalasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *syujet motivi, biriktiruvchi motiv, birikuvchi motiv, asar strukturasi, arxetipik motiv, transformatsiya.*

В статье анализируется интерпретация мотива брака по расчёту в произведении «День и ночь», его развитие и статус в сюжетной структуре. Установлено, что доминирующее положение данного мотива определяется его устойчивой взаимосвязью с другими мотивами произведения. Рассматривается, каким образом типологически сходные мотивы формируют различные тематические линии, соотносящиеся с характером и действиями героя, а также процесс трансформации мотивного комплекса в сюжете.

Ключевые слова: *сюжетный мотив, мотив брака по расчёту, структура произведения, мотивный комплекс, архетипический мотив, тематическая трансформация.*

Kirish

Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi manfaatli nikoh syujet sxemasi “O‘tkan kunlar” romanidagi sxema bilan umumiyligi yuqori sathlarda namoyon bo‘ladi. Lekin motiv komplekslarining ikki asar syujetidagi maqomi, personaj xatti-harakati, unga berilgan baho turlicha bo‘lib, A.Qodiriy romanida *ma’buda bilan uchrashuv* dominant, keyinroq manfaatli nikoh ham dominant maqomida, Cho‘lpon romanida esa *ma’buda bilan uchrashuv* birikuvchi, manfaatli nikoh motivi esa biriktiruvchi maqomida. Va shunga mos tarzda ularning komponentlari, motiv mazmuni ham “O‘tkan kunlar” romani motiv variantidagi semalardan butunlay farq qiladi. Bir xil motivlar konkret asar kontekstida turfa mazmunlarni yuzaga chiqaradi va ularning semantikasi biri ikkinchisini takrorlamaydi.

“Kecha va kunduz” romanida voqealar ikki syujet liniyasida kechadi. Muhimi, har ikki chiziqda ham manfaatli nikoh motivi syujet rivojiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Cho‘lpon syujet strukturasini, personajlarning syujetdagi rollari, psixologik holatlarini murakkab tarzda tuzgan. Shunga monand qahramonlarning syujetdagi pozitsiyalari tez-tez o‘zgarib turadi.

Material va usullar

Qo‘yilgan muammo Cho‘lponning “Kecha va kunduz” [5] romani tahlilida ochib berildi.

Muammoni tadqiq etishda mifopoetik, qiyosiy-tipologik, struktural, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

“Kecha va kunduz” romanidagi O‘lmasjon va Zebi uchrashuvini ma’buda bilan uchrashuv motivining transformatsiyalangan ko‘rinishi deyish mumkin. Professor D.Quronov Cho‘lpon “Kecha”-ning “dastlabki boblarida syujetni nechog‘li shiddat bilan rivojlantirgani “Mehrobdan chayon” bilan qiyoslaganda yaqqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi: “<...> romanning boshlanishida dramatik syujet shiddat bilan rivojlantirilsa, ichkarilab borilgani sari epik qamrov ko‘lami ortib boradi, kompozitsion vaqt kengayib, hikoya qilish vaqti cho‘zilib boradi” [1. B. 244]. Olim nazarda tutgan epik qamrov ko‘lamining kengayishi Zebining Akbarali mingboshiga turmushga chiqishidan keyingi voqealar rivojiga tegishli. “Mehrobdan chayon” romanida esa adib “syujet rivojini sekinlatib, uning asosiy tugunini romanning “Fotiha – muhri xudodir” deb nomlangan 45-bobigacha surib keladi. Zotan, ayni shu nuqtadan dramatik syujet g‘oyat shiddatli rivojlanadi, roman strukturasida chin ma’nodagi ustuvorlikka ega bo‘ladi” [1. B. 245]. Keyinroq, “Fotiha muhri Xudodir” bobidan asarda dramatik syujet shiddat bilan rivojlanib, manfaatli nikoh taklifining rad etilishi, afsuslanish (**A**) motivlari tasviri tig‘izlashadi. “Kecha”da esa, aksincha *ma’buda bilan uchrashuv* motivi tig‘izlashib, manfaatli nikoh motivi nisbatan atroflicha yoritiladi.

Manfaatli nikohning yetakchi subyekti sifatida Poshshaxon belgilanishi zarur. Miryoqubning eshonni ko‘ndirishi, Razzoq so‘figa hadyalar keltirib berishi ortida ham aynan Poshshaxonning ta’siri seziladi. Bundan tashqari, manfaatli nikohni amalga oshirish uchun Xadichaxonni aldab, yo‘rig‘iga solgani ham uning manfaatli harakat subyekti ekanidan darak beradi. “Yana bittani olib berib, mana bu yashshamagurni qopqora qaqshatsam... Kibr-u havolarini sindirsam... Shashtini qaytarsam... hovliqishini bossam... Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim! Xoh ishoning, xoh ishonmang!” [5. B. 46]. Manfaatli nikoh rejasi ayni shu syujet nuqtasida voqelangan, deyish mumkin. Poshshaxon va uning ta’sirida Xadichaxon tomonidan tuzilgan rejaning xarakterli xususiyati shundaki, bu yerda manfaat faqat kundoshdan o‘ch olish, undan ruhiy ustunlikni his qilishdangina iborat. Ijodkor motiv talqinida davr adabiyotidagi motivning boshqa variantlariga o‘xshamagan, o‘ziga xos yangilikka qo‘l uradi. “Ikkalamiz bir bo‘lsak, Sultonxonni tuzlaymiz, undan keyin (erlariga boshqa qizni olib berib, maqsadlariga yetgandan keyin – *D.A.*) kundoshlik alami sizdan ikki pog‘ona, mendan bir pog‘ona yiroqlashadi. Ikkovimiz ham xotirjam bo‘lib, opa-singil tutishamiz” [5. B. 46]. Poshshaxon bergan taklif Xadichaxon tomonidan “Soz bir qizni to‘g‘ri qilsangiz, hali ham yo‘q demaydi bu fosiq. <...> O‘ylashaylik bo‘lmasa” [5. B. 46], tarzida qabul qilinadi. Ayni shu nuqtadan o‘z nikohida manfaat obyektlari sanalgan Poshshaxon va Xadichaxon Akbarali va Zebi nikohida manfaat subyekti o‘laroq harakatlanishni boshlaydi. Nikohlanishi rejalashtirilayotgan kuyov va kelin (Akbarali va Zebi) mazkur nikoh rejasidan tamoman bexabar va harakat obyekti maqomida qoladi. Xususan, mingboshi o‘z to‘yi masalasida Zebini olib berish uchun Poshshaxon, Xadichaxon va Miryoqub tomonidan reja tuzilib, uning uchun amaliy harakat – mingboshining uyiga Zebi va dugonalarini “mehmonga” chaqirish – boshlangandan keyin xabar topadi. Miryoqub va Akbarali mingboshi suhbatlasharkan, nikoh masalasi Miryoqub tilidan ochiqlanadi. Ahamiyatlisi, Miryoqubning vazifasi Akbarali mingboshiga “ashulachi qiz” xabarini yetkazishdangina iborat, chunki mehmonga chaqirish masalasi kundoshlar – Poshshaxon va Xadichaxon tomonidan allaqachon hal qilingan. Akbarali mingboshi buni o‘z zimmasiga olib, katta xotiniga aytishga qaror bergandi, suhbat vaqtiga parallel ravishda Zebi va boshqa mehmonlar allaqachon mingboshining uyida edilar. Shu nuqtagacha Akbarali mingboshi ham, Zebi ham harakat “obyekti”dir.

1-jadval

“Kecha va kunduz” romani syujetidagi manfaatli nikoh motivlar kompleksi sxemasi

Asar	Predikat	Subyekt	Manfaat	Obyekt	Variant	Invari-ant
“Kecha va kunduz”	Manfaatli nikohni rejalashtirish	Poshshaxon, Xadichaxon, (ularga parallel ravishda Miryoqub)	kundoshdan o‘ch olish	Zebi, Akbarali	Poshshaxon va Xadichaxon kundoshini mahf etish uchun o‘z erlari Akbarali mingboshini to‘rtinchi bor uylantirishni rejalashtirishdi	MNR, $MNTB_1$, $MNTQ_1$ MNR_2, $MNTB_2$, $MNTQ_2$, MNTRE, MNAO, J (O)
	Manfaatli nikoh taklifini berish	Miryoqub	mingboshini yosh xotinga andarmon qilib, o‘z bilganini qilish		Miryoqub Akbarali mingboshiga manfaatli nikoh taklifini berdi	
	Manfaatli nikoh taklifini qabul qilish	Akbarali		Zebi (Razzoq so‘fi[1])	Akbarali mingboshi Miryoqub bergan manfaatli nikoh taklifini qabul qildi	
	Manfaatli nikoh taklifini berish				Akbarali manfaatli nikoh taklifini berdi	
	Manfaatli nikoh taklifini rad etish	Razzoq so‘fi	“chakana” odam emasligini isbotlab olish	Akbarali	Razzoq so‘fi Akbarali bergan manfaatli nikoh taklifini rad etdi	
	Manfaatli nikoh-ni rejalashtirish	Miryoqub	mingboshini yosh xotinga andarmon qilib, o‘z bilganini qilish	Akbarali, Zebi	Miryoqub eshon vositasida manfaatli nikohni amalga oshirishni qayta rejalashtirdi.	
	Manfaatli nikoh taklifini berish, qabul qilish	Eshon	Mo‘may daromadga ega bo‘lish		Razzoq so‘fi Akbarali mingboshi bergan manfaatli nikoh taklifini piri – eshon ta’sirida qabul qildi.	
	Manfaatli nikoh amalga oshishi	Poshshaxon, Xadichaxon, Miryoqub, eshon, Akbarali, Razzoq sofi	Yuqoridagi barcha manfaatlar		Zebi, Poshshaxon (bilvosita Xadichaxon) va Miryoqubning sa’y-harakati, qolaversa, otasi Razzoq so‘fining johilligi sabab ellik besh yoshlar atrofidagi uch xotinli Akbarali mingboshiga turmushga berildi.	
	Jazo	Poshshaxon, Zebi, Razzoq so‘fi		Akbarali	Poshshaxon tayyorlagan zaharni Zebi tasodifan eriga berdi va Akbarali mingboshi o‘ldi.	

[1] Aslida nikoh taklifi nikohlanuvchi kelin va kuyovga berilishi kerak, lekin o‘zbek milliy an’analariga muvofiq nikoh taklifi, asosan, kelin(kuyov)ga nomzod qiz(yigit)ga emas, balki uning ota-onasiga beriladi. Motiv obyekti belgilanayotganda shu xususiyat inobatga olindi.

Ikkisidan ham rejalashtirilgan nikoh uchun rozilik so‘ralmaydi, ya’ni manfaatli nikoh taklifi nikohlanayotganlarga berilmagan. Ammo Akbarali mingboshining syujetdagi keyingi harakatlari u haqda harakat obyektidan harakat subyektiga o‘zgardi, deyishga asos beradi. U nikoh rejalashtirilgan vaqtda bundan bexabar bo‘lsa-da, keyinroq – nikoh daragidan so‘ng, unda ham nikoh uchun harakat boshlanadiki, bu manfaatli nikohning personaj tomonidan qabul qilinishi halqasidir.

O‘lmasjon obrazi esa manfaatli nikoh motivi reallashayotgan halqalarda tamoman harakatsiz qoladi. Quyidagi jadvalda bu haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

2-jadval

“Yor uchun kurash” motivida personaj ishtiroki

Asar	Vaziyat	Qahramon harakati	Natija
“O‘tkan kunlar”	Kumush Karimshar-batdorning o‘g‘liga turmushga berilishi rejalashtirildi.	Kurashdi va yor e’tirofiga qayta erishdi.	Otabek va Kumush yana birga bo‘lishdi.
“Mehrobdan chayon”	Xon Ra’noga sovchi qo‘ydi, qiz otasi rozi.	Noroziligini uydan ketish bilan bildirdi, Ra’no ta’sirida kurashdi va yor e’tirofiga erishdi.	Ra’no Xudoyorxonga turmushga chiqishdan bosh tortdi va Anvar bilan yana birga bo‘lishdi.
“Kecha va kunduz”	Akbarali mingboshi Zebiga sovchi qo‘ydi, ota rozi.	Mavjud emas.	Zebi Akbarali mingboshiga turmushga berildi.
“Qutlug‘ qon”	Mirzakarimboy Gulnorga sovchi qo‘ydi, ota rozi.	Mirzakarimboy xonadonidan ketdi, Mirzakarimboy bilan emas, lekin uning vorisi Salimboyvachcha bilan kurashdi, yor e’tirofiga ikkinchi bor erishdi.	Gulnor Mirzakarimboyga turmushga berilsa ham, Yo‘lchi Gulnor e’tirofini saqlab qolish bilan ma’nan g‘alaba qozondi.

Razzoq so‘fi oilasi to‘la patriarxal emas, nuklear va patriarxal oila modeli oralig‘ida. Boisi, u patriarxal oiladagi kabi “ixotalanmagan”, ya’ni ota tomonidan to‘laligicha himoyaga olinmagan, chetdan ta’sir etish holati ko‘p uchraydi. Asarda bu holat eshon obrazi orqali talqin etilgan. Onaning farzandiga g‘amxo‘r va mehribonligi, istaklariga erishuvida ko‘mak berishi esa patriarxal oila xususiyatlarini namoyon etadi. Agar Razzoq so‘fi oilasini Mirzakarim qutidor oilasi bilan solishtirsak, farq yaqqol ko‘rinadi. Homid har qancha harakat qilmasin, Mirzakarim qutidor o‘z qizini unga loyiq ko‘rmaydi va undan asray oladi. Razzoq so‘fi oilasidan farqli, bu xonadonga tashqaridan ta’sir etib bo‘lmaydi. Shu bois Homid maqsadga yetishda Mirzakarim qutidorni-da to‘siq o‘laroq ko‘radi.

Zebi ruhiyatida otaga nisbatan qo‘rquv, itoat, onaga nisbatan esa achinish va hamdardlik ustun. Razzoq so‘fining mingboshi sovchilarini qaytarishi qizning otasi sifatida haqdorligi, boshqa tomondan, o‘zini tasdiqlab olish edi. U manfaatli nikohda yetakchi harakat subyekti emas. Ta’kidlaganimizdek, Razzoq so‘fi va Qurvonbibi oilasiga eshonning qarorlari bevosita ta’sir etadi. Ya’ni so‘fi eshonni o‘z piri, rahnamosi deb biladi, unga ko‘r-ko‘rona ishonadi. Asarda e’tiqod masalasidagi mutelik, iymon zaifligi manfaatli nikohni yuzaga keltirgan asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Mazkur variatsiya ham ijtimoiy-psixologik kontekst ta’sirida yuz bergan. Cho‘lponning soxta din ulamolari, ayniqsa, eshonlarni qattiq tanqid ostiga olgani “Qor qo‘ynida lola” hikoyasidagi yosh qizni o‘ziga so‘ratgan xudbin, manfaatparast eshon obrazida ham ko‘rinadi. Zero, Adib Xolid ta’kidlaganidek, “Jadidlar anchadan beri an’anaviy ulamolarni jamiyat va islom islohiga eng katta to‘siq sifatida ko‘rishardi” [6. B. 225]. Eshon harakat (qizni mingboshiga berish)ni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi personaj bo‘lib, uning vositasida so‘fining nikoh taklifini rad etgandagi ruhiy qoniqishi, “benamozga qiz bermayman” (mingboshi bo‘lsa ham – *D.A.*) deya o‘z “men”ini tasdiqlashi yo‘qqa chiqadi. Razzoq so‘fi o‘z qizini ixtiyoriy kimgadir berish tanlovini ham amalga oshirishga qodir emas. D.Quronov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: “To‘y tadorigi boshlanib, mingboshinikidan kelgan mol-dunyoni ko‘rgach, so‘fi

o‘zgaradi... Zebining mingboshiga munosib ko‘rilgani so‘fining ochko‘zligidan emas, yana qaytaramiz, johilligidan. So‘fining mol-davlatni ko‘rib quvonishi Zebi fojiasining sababi emas – natijasi” [1. B. 178].

Razzoq so‘fining ayollarga nisbatan mustabidligi, avvalo, uning *“himoyalanish reaksiyasi”* bilan bog‘liq [1. B. 175]. E’tibor berilsa, Qurvonbibi iqtisodiy jihatdan mustaqil, eriga qaram emas. U nochorlikdan qo‘rqib erning jabr-zulmiga chidayotgan, turmushini saqlab kelayotgan ayollar toifasiga kirmaydi. Oilani moddiy ta’minlayotgan o‘zi va qizi bo‘lsa-da, erining *“makkatilloga ketaman”* degan so‘zlaridan astoydil xavotirga tushadi. Bundan ko‘rinadiki, u o‘z oilasini Razzoq so‘fisiz, aniqrog‘i “boshliqsiz” tasavvur qilolmaydi.

Nikohda qizlarning “obyekt”ligi faqat ijtimoiy-madaniy kontekst bilan emas, balki psixologik ta’sir bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

N.Chordourning ta’kidlashicha, bola va ona o‘rtasidagi yaqin aloqaning uzilishi o‘g‘il va qizlarda turlicha kechadi. O‘g‘il bolalardan farqli, qizlar onalari bilan yaqin munosabatda qoladilar. Masalan, ular qattiq quchoqlash va o‘pishish odatlarini saqlab qoladi, onaning xulq-atvoriga taqlid qiladi. Ona bilan aloqaning keskin uzilmagani uchun qiz bolaning, keyinchalik esa ayolning xarakteri shunday shakllanadiki, u erkinlikka emas, o‘zini boshqa odamlar bilan bog‘lashga intiladi. Shu sababli u boshqa odamning, avval onaning, keyin esa erkakning ta’sirida yashashi ehtimoli ko‘proq [7].

Zebining nikohda obyektlik xususiyati roman so‘ngigacha saqlanib, u anglagan holda nikohga ko‘nadi. Bu esa bevosita qizning Razzoq so‘fi bosh bo‘lgan oilada o‘sgani va, N.Chordour ta’kidlaganidek, qizning ona bilan mustahkam munosabati natijasidir.

Zebidan farqli, Poshshaxon nikohni barbod qiluvchi subyektga aylangan. Bu esa Zebining tamoman muhit qurboni ekanini bo‘rtiq ifodalashga va kundoshlari (ayniqsa, Poshshaxon)ning obyektdan manfaat subyektiga evrilish “yo‘li”ni alohida urg‘ulashga imkon bergan.

Sultonxon Zebiga nisbatan kundoshlik maqomida turmagani uchun Poshshaxonning o‘zi harakatga tushadi va u hayotini o‘zgartirishning birgina yo‘lini – “suyukli”ni o‘ldirish, jinoyatda Sultonxonni ayblab, biryo‘la ikkalasidan ham qutulishni – reja qiladi. Syujetning mazkur burilish nuqtasi juda qiziqarli tarzda amalga oshirilgan. E.Slavutin va V.Pimonov qasos motivining turli variantlarini tadqiq qiladi va ulardan birida mazkur minimal syujet quyidagicha tahlil qilingan. “Qasos syujetida A > B munosabatining B > A munosabatiga o‘zgarishi, ya’ni A B ni o‘ldiradi holatining B A ni o‘ldiradi holatiga aylantirilishi B obyektini ikki barobarga ko‘paytirish yoki ikkiga ajratish orqali amalga oshiriladi. <…> Harakat davomida rollar o‘zgarib, qotil qurbonga, qurbon esa qotilga aylanadi. <…> Biz Gomer “Iliada”sidagi qasos syujetida mutlaqo kutilmagan burilishni topamiz. Odatiy holatdan farqli o‘laroq, qotillik uchun qasos o‘ldirilgan shaxsning dublikati – nusxasi – haykal, rasm tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, Gomerda, aksincha, ikki kishining o‘zi o‘ldiriladi (Patrokl va Gektor), qasos olinadi, qotillik “o‘lgan” kishi (Axill) tomonidan amalga oshiriladi” [8. B. 35]. Cho‘lpon har ikki syujet siklini o‘zaro qorishtiradi. Gomer qahramoni Patrokl Axillesning kiyimlarini kiyib olgani uchun ham Gektor uni o‘ldiradi, Poshshaxon Zebini o‘ldirishni maqsad qilgani uchun faqat u ichishi mumkin bo‘lgan “tabarruk” suvga zahar soladi. Ammo xuddi Gektor Patroklni Axill deb o‘ylab, adashgani kabi Zebi ham tasodifan o‘zi ichishi kerak bo‘lgan suvni Akbarali mingboshiga beradi va u o‘ladi. Ya’ni bunda qurbon bo‘lishi kerak bo‘lgan Zebi qotilga aylanadi. Ikkinchi tomondan, qotil Poshshaxon erining o‘limi tufayli qurbonga aylanadi. Mingboshi o‘limi, ya’ni manfaatli nikohning nihoyalanishi, birinchi navbatda, shu nikohga “bosh bo‘lgan” Poshshaxon uchun jazoga aylangan. Chunki Miryoqub Mariya bilan safarga ketgan (Sharofuddin Xadjayev ta’sirida maishiy masalalardan yuqorilagan), mingboshining ishlarini ayni vaqtda Sultonxon bilan munosabat o‘rnatgan Hakimjon boshqaradi. Bir vaqtlar Poshshaxon va Miryoqub tuzgan rejaning – Akbarali mingboshi o‘limidan so‘ng merosning katta qismini xatlab olish – endilikda Sultonxon va Hakimjon tomonidan amalga oshirilish ehtimoli yuqori.

Bilmasdan, tasodifan Patroklni o‘ldirgan Gektor Axill tomonidan o‘ldirilgani kabi Zebi ham surgun bilan jazolanadi. Bu yerda Zebining soddaligi, atrofidagi ishlarning mohiyatini anglamasligi aktual qatlamda turgani bois, uning surgunga jo‘natilishi qurbonlik qutbini bo‘rtiqroq ko‘rsatadi. Jozef Kempbellga ko‘ra, kimlardir *“abadiy qurbon bo‘lib qoladilar”.* Zebining surgunga jo‘natilishi esa Razzoq so‘fi, Qurvonbibi uchun jazo shakliga aylangan. So‘fining, avvalboshdan manfaatli nikoh taklifini rad etgani, keyinroq eshon ta’sirida bu taklifni qabul qilgani hisobga olinsa, uning nikohdan ko‘ruvchi birdan bir foydasi eshonga chin murid bo‘lish ediki, u eshonni o‘ldirish bilan nikohga rozi bo‘lib erishgan manfaatdan voz kechadi.

“Kecha va kunduz” romanida potensialdagi manfaatli nikoh motivi ham mavjud. Bu g‘arb jamiyati burjuaziya vakillari orasida urf bo‘lgan ikki shaxsning moddiy farovonlik va o‘zga manfaatlar sabab turmush qurishni rejalashtirishiga o‘xshash nikoh rejasidir. Miryoqub va Poshshaxon pinhona munosabat

o‘rnatgan, ikki o‘rtada kelishuv ham amalga oshib bo‘lgan. Bu munosabat Yevropada XVIII–XIX asrda, Rossiyada XIX asrda keng tarqalgan “shaxsiyatni namoyish etish” shaklidir. Cho‘lpon feodal jamiyat va burjuaziya to‘qnashuvini ikki qahramon munosabati orqali tasvirlaydi. G‘arbda dastlab romantik sevgiga oiladan tashqaridagi hodisa sifatida qaralgan. Boisi turmush qurayotgan yoshlar, odatda, ota-ona xohishi va manfaatlarining ijrochilari bo‘lib, oiladan tashqarida “sevishish” g‘oyasi bilan o‘zini namoyon eta boshlaganlar [9. B. 848]. Ya’niki, nikohda yetishmagan emotsional munosabat tashqaridan qidirilgan va qondirilgan. Miryoqub va Poshshaxonning “o‘z men”ini namoyon etishga urinishi oqibatida xuddi shunday – noqonuniy, axloqqa zid munosabat vujudga kelgan. Romantik sevgidan farqli, bunda his-tuyg‘u birlamchi emas, balki “aqlga muvofiq kelishuv” bor. Miryoqubning Akbarali qazo qilgach, Poshshaxonga uylanishni niyat qilgani va mingboshi merosiga ko‘z tikkani esa “odil sud” bilan suhbatida ayonlashadi. O‘lmasjon initsiatsiyaning dastlabki bosqichida bo‘lsa, Miryoqub bu bosqichdan o‘tgan, hayotda ma’lum bir maqom (Miryoqub epaqa)ga erishgan. O‘lmasjon o‘z hayotini yaxshilashga intilsa-da, harakatlari ortidan muayyan natijaga erisha olgan emas, Miryoqub esa ijtimoiy munosabatlarda faol shaxs. U jamiyatda qobiliyatlariga yarasha mavqe egallashga harakat qilarkan, sinovning keyingi bosqichi – siyosiy qatlam vakillari bilan munosabatlarda o‘z shaxsiyatini reallashtira olmay, shu doira ichida depsinib qolgan. Akbarali mingboshi (o‘zbek amaldori) va noyib to‘ra (rus amaldori)ning ishonchiga kirib, ularning soyasida ish bitiradi. Umuman olganda, bular personajga naf keltirsa-da, ayni paytda u amaldorlarning ijrochisiga aylangan. O‘lmasjon mahalliy doirada ilojsiz, “obyekt” maqomida qolsa, Miryoqub undan farqli bu doirada muayyan maqomga erishgan, lekin keyingisi – siyosiy arboblar bilan munosabatda kichkina odam maqomida turadi. Ayni shu pallada Mariya bilan uchrashadi – buni J.Kembell monomifidagi “ma’buda bilan uchrashuv” motivining varianti deb hisoblash mumkin [10. B. 55].

Miryoqubning Mariya bilan uchrashuvi – ma’naviy-ruhiy sinov. U bu ayolni botqoqlikdan qutqarib, pokiza hayotga qaytarishga intiladi. Bu orqali o‘zi ham qisman bo‘lsa-da, erkinlikka erishib, sinovning keyingi bosqichiga o‘tadi. Akbarali mingboshi va Zebi taqdirida esa bu aksincha voqelanadi. Akbarali mingboshi Zebiga o‘zining ish-turmushidan, yuqori qatlam vakillaridan zada bo‘lgan, to‘poriligi va soddaligini niqoblashga majbur bo‘lib yashayotgan bir davrda yo‘liqdi. Mingboshi nazdida u “bir xotin” emas, kuy-qo‘shiqlari bilan ruhiga orom beruvchi “*malak*”. Unga shunchaki xotin (narsa) deb qaramasdan, hayotidagi bo‘shliqni Zebi vositasida to‘ldirishni istaydi. Uning *“agar shuni olsam qolgan xotinlarimga qaramayman*” deyishidan Miryoqub kulsa-da, bu gap zamirida jiddiylik, ahdni ko‘radi va bu mushkulot qarshisida tong qoladi [1. B. 136]. To‘ydan so‘ng ham, Zebi to atrofdagilar (kundoshlar, Razzoq so‘fi, onasi) ta’sirida “taslim” bo‘lgunga qadar mingboshi qarshisida “malak” maqomida bo‘ladi. Akbarali Zebidagi beg‘uborlik, soflik o‘ziga-da yuqishini, bu orqali o‘zini-da qutqarishni xohlaydi. Biroq qiz taslim bo‘lishi bilan muhit yetishtirgan “barcha ayollar” safiga qo‘shiladi. Boshqacha aytganda, muhit qurboni bittaga ortadi. Shu nuqtada, Akbarali uchun Zebi “malaklik”dan *uy ahllari* qatori, oddiy “xotin” maqomiga tushgan. Mohiyatan ijodkor ham, adresat ham Zebiga nisbatan avvalgidek shaydolik darajasida qaramaydi, ular uchun ham qahramon yuqoridan quyiga tushadi.

Jek Londonning “Martin Iden” romani bosh qahramoni Martinning Rufga munosabatida ham ayni hol kuzatiladi. U uchun Ruf aslzoda, atrofdagi hech bir ayolga o‘xshamaydi. Martin o‘ylaydiki, boshqa qizlar bilan munosabatdagi xatti-harakatlarni Rufga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Shunday kunlarning birida u kitob o‘qiyotgan qiz dudog‘ida olcha shirasi izlarini ko‘rib qoladi. Shu lahzada Iden uchun Ruf hamma qatori qizga aylanadi. Uning maqomi ham xuddi Zebi singari yuqoridan quyiga tushadi. Bu ikki asarda personajga munosabatning o‘zgarishi tamomila farqli omillarga ega. Shunga qaramay, har ikkisida personajning idealdan quyiga tushishi realistik yo‘sinda tasvirlangan.

Akbarali mingboshi bir qizni botqoqlikka tortib, o‘z muhiti ichiga singdirib yuborsa, Miryoqub Mariyani botqoqdan qutqarib, o‘zi ham tor doiradan tashqariga chiqishga erishadi.

Xulosa

Xulosa qilinsa, “Kecha va kunduz” romanida “ma’buda bilan uchrashuv” va manfaatli nikoh motivlari bir-birini to‘ldiradi, shu bilan birga, Zebi tegrasidagi syujet chizig‘ida “ma’buda bilan uchrashuv” motivi funksional jihatdan unchalar sezilarli mavqeda emas, manfaatli nikoh motivi esa dominant sanaladi. Cho‘lpon romanida “O‘tkan kunlar”dagidan farqli, obyekt (Zebi) nikohni barbod qiluvchi subyektga aylanmaydi. Manfaatli nikohning yakunlanishi Akbarali mingboshining boshqa bir xotini sa’y-harakati natijasida sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. *Қуронов Д.* Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.
2. *Косвен О.* Матриархат. История проблемы. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948.– 329 с.
3. *Раҳмонов М.* Сеҳрли эртаклардаги айрим мотивлар генезисига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1992. – № 3–4. – Б. 51–55.
4. *Қўшжонов М.* “Кеча ва кундуз” романида образлар тизмаси //Ўзбек тили ва адабиёти. – 1992. – № 3–4. – Б. 8–13.
5. *Чўлпон А*. Асарлар. IV жилдлик. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 384 б.
6. *Адиб Холид.* Ўзбекистон таваллуди: илк СССР даврида миллат, империя ва инқилоб. – Тошкент: Академнашр, 2022. – 424 б.
7. *Chordorow N*. The reproduction of mothering: Psychoanalysis and the sociology of gender. Berkeley: University of California, 1978. – 276 p.
8. *Славутин Е.И, Пимонов В.И.* Структура сюжета. – Москва: Флинтина, 2019. – 172 с.
9. *Гидденс Э. Социология.* – Тошкент: Шарқ, 2002. – 848 б.
10. *Cambell J.* The hero with thousand faces. – New York: Pantheon Books, 1949. – 497 p.

THE STATUS OF THE MOTIVE OF MARRIAGE OF CONVENIENCE IN THE PLOT

(In the example of Cholpon’s novel “Night and Day”)

Dilobarkhan A. Azizova[1,2]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 5(89). 62-69.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_ info@edu.uz
[2] Andijon State Pedagogical Institute, Andijan, 42240170, str. Do‘stlik, 4. E-mail: adpi@edu.uz.

Key words: *plot motive, connecting motive, dominant motive, structure of the work, archetypal motive, transformation, meeting with the goddess, temptation.*

In the study of motives, there is a great interest in studying recurring motives within the works of one artist. We also undertook this work in the article entitled “The status of the motive of marriage of convenience in the plot”. In this section, the characteristic creative path of Cholpon, the variation of the motive the dominant status of the marriage motive, which is convenience, and the static status of the meeting with the goddess motive, are considered as an element of variation.

In the novel “Night and Day”, events unfold along two plot lines. Importantly, in both lines, the motive of marriage of convenience has a significant impact on the development of the plot. Cholpon has created a complex plot structure, roles, and psychological states of the characters in the plot. Similarly, the positions of the characters in the plot change frequently.

E.Slavutin and V.Pimonov, studying various variants of the motives of revenge and death, draw attention to an interesting aspect of this complex of motives. “In the plot of revenge, the change of the relationship A > B to the relationship B > A, that is, the transformation of the situation A kills B into the situation B kills A, is carried out by doubling or dividing the object B into two. <…> In the course of the action, the roles change, the killer becomes the victim, and the victim becomes the killer. <…> We find a completely unexpected turn in the plot of revenge in Homer’s “Iliad”. Unlike the usual case, revenge for murder is carried out by a duplicate - a copy - a statue, a painting of the murdered person, in Homer, on the contrary, two people themselves are killed (Patrocles and Hector), revenge is taken, the murder is carried out by the “dead” person (Achilles)” [8. P. 35]. Cholpon mixes both plot cycles. Hector kills

Homer's hero Patroclus because he wears Achilles' clothes, and Poshshakhan, intending to kill Zebi, poisons the "sacred" water that only he can drink. But just as Hector mistakenly thought Patroclus was Achilles, Zebi accidentally gives the water he should have drunk to the chieftain Akbarali, and he dies. That is, Zebi, who should have been the victim, becomes the murderer. On the other hand, the murderer Poshshakhan becomes the victim due to the death of her husband. The death of the chieftain, that is, the end of a marriage of convenience, first of all became a punishment for Poshshakhan, who "got into" this marriage. Because Miryakub went on a trip with Maria (under the influence of Sharofiddin Khodjayev, he rose above household matters), and the chieftain's affairs are managed by Hakimjon, who has established a relationship with Sultankhan. The plan once hatched by Poshshakhan and Miryakub - to seize a large part of the inheritance after the death of Akbarali the Thousand-Year-Old - is now likely to be implemented by Sultankhan and Hakimjon.

References:

1. Quronov, D. (2004). *Cho'lpon nasri poetikasi* [Poetics of Cholpon's prose]. Tashkent: Sharq.

2. Kosven, M.O. (1948). Matriarxat. Istoriya problemy [Matriarchy. History problem]. Moscow-Leningrad: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.

3. Rahmonov, M. (1992). Sehrli ertaklardagi ayrim motivlar genezisiga doir [On the genesis of some motives in magical tales]. *O'zbek tili va adabiyoti*. 3-4. Pp. 51-55.

4. Qo'shjonov, M. (1992). "Kecha va kunduz" romanida obrazlar tizmasi [A series of images in the novel "Night and Day"]. *O'zbek tili va adabiyoti*. 3-4. Pp. 8-13.

5. Cholpon, A. (2016). Asarlar [Works]. In 4 volumes. Vol. 2. Tashkent: Akademnashr.

6. Адиб, Холид.(2022). *O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob* [The Birth of Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early Soviet Era]. Tashkent. Akademnashr.

7. Chordorow, N. (1978). *The reproduction of mothering*. Berkeley: University of California.

8. Slavutin, E. Pimonov, B. (2019). Struktura syujeta [Plot structure]. Moscow: Flinta.

9. Giddens, E. (2002). Sotsiologiya [Sotsiology]. Tashkent: Sharq.

10. Campbell, J. (1949). The Hero with thousand faces. New York: Pantheon Books.

Muallif haqida ma'lumot:

AZIZOVA Dilobar Abdujalil qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: dilobarazizova@gmail.com